

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
KARERA MARKAZI
N I Z O M I**

Toshkent – 2021

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Karera markazi
NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2021-yilning 16-iyun kuni o‘tkazilgan 34-son yig‘ilish bayonining 2, 3 va 10-bandlari hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 23-iyundagi 314-son buyrug‘i va universitet rektorining 2021-yil 29-iyuldagi 238-UM-sonli buyrug‘ining 4-bandida belgilangan vazifalar ijrosidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Karera markazi” (keyingi o‘rinlarda - Markaz deb yuritiladi) faoliyatini belgilaydi.

1.2. Markaz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror, farmon va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari, hay’at qarorlari, universitet rektorining buyruqlari va kengash qarorlari shuningdek mazkur Nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida faoliyat yuritadi.

1.3. Markaz joylashgan asosiy manzil: – 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy.

1.4. Markazning rasmiy nomi:

davlat tilida – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Karera markazi (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Karyera markazi”); qisqartirilgan nomi – TDSHU KM;

rus tilida – Центр карера; qisqartirilgan nomi - ЦК.

ingliz tilida – “Career center” qisqartirilgan nomi- CC.

II. Markazning asosiy maqsadi

2.1. Ta’lim xizmatlari bozorida universitet faoliyat ko‘rsatishining aniq strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, universitet reytingini oshirish maqsadida bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash va ularni ishga taqsimlash jarayonini iste’molchilar (ish beruvchilar) tomonidan mutaxassis shaxsiga qo‘yilgan talablarni bajarishga yo‘naltirish hamda bu jarayonga rahbarlik qilish, reklama-axborotni rejalashtirish va uni olg‘a siljitish rag‘batini ta’minlash, bitiruvchilarni ishga taqsimlash va joylashtirishni amalga oshirish hamda ta’lim xizmatlari ko‘rsatishga o‘z vaqtida tayyorgarlik ko‘rish, shartnomalar tuzishni tashkil qilish hamda nazoratga olishdan iborat.

3. Markazning vazifalari

3.1. Uuniversitet reytingining tegishli ko'rsatkichlarini (bitiruvchilarning kasbiy mahorati (malakaviy sifatlari) hamda ularning ish beruvchilar (iste'molchilar) talablariga muvofiqligi, bitiruvchilarning o'qishni tugatgandan so'ng mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish darajasi) o'rganish va ularni yanada oshirish uchun barcha tegishli bo'linmalar (fakultetlar, kafedralar, bo'limlar) faoliyatini muvofiqlashtirish.

3.2. Talabalarga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslari, mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash ko'nikmalari, ishga kirish uchun rezyumeni tayyorlash va ish beruvchi bilan suhbatdan o'tkazish usullarini o'rgatish, ishga kirish uchun talab e'tiladigan hujjatlar bilan tanishtirish;

3.3. Iqtisodiyot tarmoqlarining ilg'or mataxasislari va ekspertlarini jalb qilgan holda talabalarni kasbga yo'naltirish, mehnat bozoridagi mavjud va istiqboldagi holat, muayyan kasbga, ish joylariga va ish beruvchilarga, istiqbollik korxonalariga oid zamonaviy ma'lumotlar bilan tanishtirish;

3.4. Mehnat organlari, ta'lim muassasalari, manfaatdor idoralar va tashkilotlar ishtirokida ish o'rinlari yarmarkalari, karera kunlarini takil etish va talabalarni kelajakda kasbiy faoliyatga qiziqishlarini kuchaytiruvchi tadbirlarni amalga oshirish;

3.5. Oliy ta'lim muassasasining mutaxassislar tayyorlash, bitiruvchilarni ishga joylashtirish, mazkur oliy ta'lim muassasasini muqaddam tamomlagan bitiruvchilarning hozirgi mehnat faoliyati (kar'erasi) to'g'risida hamda ushbu yo'nalishdagi boshqa tahliliy materiallarni tayyorlash va nashr qilish;

3.6. Bakalavr va magistrlar tayyorlash samaradorligi hamda sifatini oshirib borilishini ta'minlash maqsadida har yili kadrlarga bo'lgan joriy va istiqboldagi prognoz ehtiyojlarni o'rganish.

3.7. Bakalavr va magistrarga bo'lgan ehtiyoj parametrlarni ishlab chiqadigan hokimliklar, vazirliklar, idoralar va tashkilotlar, asosiy ish beruvchilar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

3.8. Asosiy ish beruvchilardan olingan joriy va istiqboldagi buyurtmalar asosida universitetda korxonalar va tashkilotlarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari to'g'risida zamonaviy strategik ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda uni doimiy yangilash va zamon talabi asida kengaytirib borish.

3.9. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha talabalarning kasbiy mahoratini oshirish va bitiruvchilarni ishga taqsimlash borasida universitetning tegishli bo'linmalari (turli ilmiy-uslubiy kengashlar, ilmiy, o'quv-uslubiy bo'linmalar, fakultetlar, kafedralar va h.k.) bilan hamkorlik qilish, ular tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish va baholashda ishtirok etish, universitet bitiruvchilarining umumiy ish bilan bandlik siyosatini muvofiqlashtirish.

3.10. Respublika va tegishli hududlar (viloyatlar) iqtisodiyoti hamda ijtimoiy soha tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda yangi ta'lim (tayyorlov) yo'nalishlari yoki mutaxassisliklarini ochish, shuningdek ta'lim

xizmatlari bozori talablariga javob bermaydiganlarini to'xtatish bo'yicha takliflar tayyorlash, yetarlicha ish beruvchiga ega bo'lmagan bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxatini aniqlash.

3.11. Ish beruvchilar (iste'molchilar)ning bitiruvchilar haqidagi fikrlari (e'tirozlari, yosh mutaxassisning kamchiliklari, rad qilinishi sabablari) va ta'lim sifatini oshirishga oid takliflari asosida amaldagi ta'lim mazmuniga muayyan o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

3.12. Talabalar amaliyoti va ishga joylashishiga har tomonlama ko'maklashish, potensial ish beruvchilar ro'yxatini shakllantirib borish va hamkorlik qilish, shuningdek avvalgi bitiruvchilar salohiyatidan unumli foydalanish.

3.13. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim xizmatlari bozori va kon'yukturasiga ta'sir ko'rsatuvchi turli hil omillar (segmentlar) o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish asosida bitiruvchilarni oldindan ishga taqsimlash tizimini tashkil qilish va amalga oshirish.

3.14. Joriy yil bitiruvchilari haqida (ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar kesimida davlat granti va to'lov-kontrakt asosida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatilgan holda) ma'lumotlar bankini yaratish.

3.15. Universitetning bitiruvchilarni ishga taqsimlash bo'yicha komissiyasini tashkil etish, taqsimot komissiyasi tomonidan ish beruvchi muassasa, korxon va tashkilotlarning kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlariga muvofiq bitiruvchilarni ishga taqsimlash rejalarini (dastlabki, aniqlashgan) ishlab chiqish va yakuniy taqsimotni o'tkazib, uning natijalari bo'yicha bitiruvchilar shaxsiy taqsimot qaydnomasini tuzish hamda umumlashtirish.

3.16. Universitetning bitiruvchilarni ishga taqsimlash bo'yicha komissiyasi faoliyati uchun zarur bo'lgan bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha har bir bitiruvchining reytingi va malakaviy sifatlari to'g'risida tavsifnoma, bitiruvchilarning qaysi muassasa, tashkilot yoki korxonada ishlashini xoxlashiga oid anketa so'rovlari natijalari va ish beruvchilar (iste'molchilar)dan korxon yoki tashkilotdagi mavjud mehnat hamda maishiy-madaniy shart-sharoitlar, ish haqi miqdorlari haqidagi ma'lumotlarni tayyorlash. Bitiruvchilarni ishga taqsimlash va ularning joylashishiga oid barcha zaruriy hujjatlarni (diplomdan ko'chirma, ishga yuborilganlik to'g'risida yo'llanma, taqsimot komissiyasi qarori, shaxsiy taqsimot qaydnomasi) tayyorlash, rasmiylashtirish va bitiruvchilarga topshirish.

3.17. Joriy yil bitiruvchilari haqida (ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar kesimida davlat granti va to'lov-kontrakt asosida kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatilgan holda) ma'lumotlar bankini yaratish. Ishga taqsimlangan va joylashgan bitiruvchilardan ishga yuborilganlik to'g'risidagi yo'llanmalarining bo'lagini to'liq qabul qilib olish

va ularning taqsimot yoki qayta taqsimot (shu jumladan, mustaqil ishga joylashish) hamda mutaxassisligi bo'yicha korxonalar va tashkilotlar kesimida ishga joylashuvi haqida to'liq yakuniy ma'lumotlar bankini yaratish.

3.18. Joriy yilda va o'tgan yillar davomida ishga joylashgan yosh mutaxassislar bilan qaytar aloqalar o'rnatish, zaruriy hollarda ularga amaliy-uslubiy yordamlar ko'rsatish, maslahatlar berish hamda mehnat faoliyati natijalarini umumlashtirish.

3.19. Yangi o'quv yili qabul rejasining bajarilishi (davlat grantlari va to'lov-kontrakt bo'yicha qabul rejasi, tushgan arizalar, konkurs, qabul qilingan talabalar soni, ularning kurslar, ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) bo'yicha taqsimlanishi, o'qitish tillari va h.k.) haqida ma'lumotlar bankini yaratish. Yangi o'quv yilida davlat grantlari asosida qabul qilingan talabalar bilan universitet o'rtasida o'qishni tugatgandan so'ng ishga taqsimlangan joyida 3 yil ishlab berishi to'g'risida shartnomalar tuzish.

3.20. Ish beruvchilar (iste'molchilar)ga axborotlar vositasida ta'sir ko'rsatish yo'llarini tanlash, ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, radio-televidenie, elektron aloqa, veb-sayt) orqali bitiruvchilar to'g'risida (viloyatlar bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar kesimida) ma'lumotlar e'lon qilinishini, universitet veb-saytida joylashtirish.

3.21. Turdosh oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlanayotgan raqobatli bitiruvchilarning kasbiy mahorati darajasi, ularning ustunligi va kamchiligini baholash hamda o'z bitiruvchilari bilan taqqoslash.

3.22. Kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlar va bitiruvchilarni yakuniy ishga taqsimlash natijalari haqidagi ma'lumotlarni taalluqli vazirlik (idora)ning maxsus komissiyasi hamda ish beruvchi muassasa, korxonalar va tashkilotlarga davriy ravishda taqdim etish, ishga taqsimlash jarayoni nazorat rejasining bajarilishi bo'yicha universitet Kengashida hisobotlar berish.

3.23. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarni ishga taqsimlashda yordamchi-vositachilik tuzilmalarini tanlash (hokimiyatlar, mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish boshqarmalari (bo'limlari), savdo-sanoat palatasi, agentliklar, ishonchli vakillar va h.k.) va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

3.24. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning imkoniyatlari va ustunliklarini namoyish qilish maqsadida universitetning respublika, mintaqaviy va xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalarda ishtirok etishini ta'minlash, muassasa hududida ko'rgazma va vitrinali ekspozitsiyalar tashkil etish.

3.25. Imzolangan shartnomalarga muvofiq ish beruvchilarni belgilangan muddatlarda bitiruvchilar bilan ta'minlash maqsadida universitetning barcha tegishli bo'linmalari bilan talabalar qabuli va bitiruvchilarni ishga taqsimlash rejalarini muvofiqlashtirish.

3.26. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarni ishga taqsimlash va joylashtirish, yosh mutaxassislarning mehnat faoliyati natijalari bo'yicha universitetning ichki hisobotini yuritish va tashkil etish, markazning yillik hisobotini tayyorlash hamda universitet Kengashida ko'rib chiqish.

4. Markazning huquqlari

4.1. Markazga mas'ul bo'lgan prorektor hamda Marketing bo'limi boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

4.2. Markaz vakolatlariga kirgan zaruriy ishlarni amalga oshirish uchun universitetning tegishli bo'linmalaridan (ilmiy va uslubiy kengashlar, o'quv va uslubiy bo'linmalar, fakultetlar, kafedralar va h.k.) axborotlar taqdim qilishni talab qilish;

4.3. Universitetning pedagog-xodimlari va ish beruvchi (iste'molchi) muassasa, korxonalar va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini (kelishuv asosida) o'rnatilgan tartibda ish bilan bandlik tadqiqotlarini o'tkazish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash hamda ular haqidagi axborotlarni tarqatish tizimini loyihalash va tashkil qilishga jalb etish;

4.4. DTS doirasida ish beruvchi (iste'molchi)larning talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda bitiruvchilarning kasbiy sifatlari va raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha takliflar kiritish;

4.5. Ish beruvchilar (iste'molchilar)ning yosh mutaxassislar haqidagi fikrlari: e'tirozlari, kamchiliklari va rad qilinishi sabablari va ta'lim sifatini oshirishga oid takliflarini tahlil qilish hamda ta'lim xizmatlari bozori talablariga javob beruvchi yangi avlod bitiruvchilarini shakllantirish bo'yicha, jumladan tayanch oliy ta'lim muassasalariga tavsiyalar berish;

4.6. Ish beruvchilar (iste'molchilar)ning takliflari asosida mavjud ta'lim metodikasi (texnologiyalari)dagi kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

4.7. Bitiruvchilarni ishga taqsimlash va joylashtirish bo'yicha tegishli muassasa, korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;

4.8. Amaldagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib, bitiruvchilarni ishga taqsimlashning mavjud tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritish yoki uni takomillashtirish bo'yicha Universitet kengashiga takliflar kiritish;

4.9. Bitiruvchilar to'g'risida reklamalar mazmuni va ommaviy axborot vositalari, bosma nashrlar orqali ma'lumotlar e'lon qilinishi hamda iste'molchilarga

yetkazilishi bo'yicha fakultetlar, taalluqli kafedralar, qabul komissiyasi faoliyatini nazoratga olish va ularning samaradorligini baholash;

4.10. Bitiruvchilarning imkoniyatlari va ustunliklarini namoyish qilish maqsadida universitet xodimlarining respublika va xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalar, uchrashuvlar va konferensiyalarda ishtirok etishini tashkil qilish;

4.11. Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, taalluqli masalalar majmuini aniqlash, vazifalarini tasdiqlash;

5. Markazning mas'uliyati

5.1. Mazkur Nizomga muvofiq yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun to'liq javobgarlik Marketing bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklatiladi.

6. Markaz faoliyatini yuritish va nazoratga olish

6.1. Markaz o'z faoliyati natijalari bo'yicha Universitet Kengashida har joriy yilda kamida bir marta hisobot beradi.

6.2. Markaz o'ziga yuklatilgan vazifalar ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlarni belgilangan shakl va muddatlarda universitet Kengashi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etadi.

6.3. Markaz faoliyati Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi va o'rnatilgan tartibda nazoratga olinadi.

7. Yakuniy koidalar

7.1. Markazning faoliyatini tugatish, o'zgartirish kiritish yoki qayta ko'rib chiqish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7.2. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

7.3. Mazkur Nizomning amal qilish muddati chegaralanmagan.